O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(I-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

UO'K: 330.35(575.1)
O‘ 17
KBK: 65.9(O‘zb)

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024 yil 25-noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 262 bet.

Nashr uchun mas'ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
G'.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo'nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo'llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo'llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-720-95-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

foydalanishadi. Ular eksport qilgan mahsulotini bank orqali sotsa xaridorga ham mahsuloti moliyalashuviga ham tezkor yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonun / www.lex.uz

2.I. Toymuhammedov, G. Bekmurodova “Bank ishi” fani bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2017

3. O.A.Ortiqov , I.Ya.Qulliyev Toshkent “Bank menejmenti” 2015-7 bet.

Internet saytlari:

1. www.cbu.uz

2. www.spot.uz

3.www.stat.uz

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD
+998941891989
ferdu_www@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitida mamlakatimizda xizmat ko’rsatish sohasidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo’yicha tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, maqolada xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida taklif va tavsiyalar keltilgan.

Kalit so‘zlar. xizmat, xizmat ko’rsatish, iqtisodiyot, ishsizlik, kadrlar malakasi, innovatsiya, texnologiya, investitsiya, savdo xizmatlari, xizmat ko’rsatish dinamikasi.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В данной статье проведены исследования по существующим проблемам в сфере услуг в нашей стране и их устранению в условиях перехода к цифровой экономике. Также в статье приведены предложения и рекомендации по развитию сферы услуг.

Ключевые слова. сервис, обслуживание, экономика, безработица, квалификация кадров, инновации, технологии, инвестиции, услуги торговли, динамика обслуживания.

SERVICE SECTOR PROBLEMS AND PROSPECTS IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article presents research on existing problems in the service sector in our country and their elimination in the context of the transition to a digital economy. The article also provides suggestions and recommendations for the development of the service sector.

Key words. service, economy, unemployment, personnel qualifications, innovation, technology, investment, trade services, service dynamics.


Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish har qanday davlat iqtisodiyotining muhim qismi hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy daromad olib keladi, balki aholining turmush darajasini oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev PQ – 104 sonli Qarorida hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta’minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish maqsadida “sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur’atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda - savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish”[53] deb ta’kidlab o’tganligidan kelib chiqib, mamlakatimizda xizmat ko’rsatish sohasini yanada rivojlantirish bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda davlatimizda xizmat ko’rsatish sohasida kadrlar malakasi va tajribasi yetishmasligi, infratuzilma va texnologiyalar yetarli emasligi, xizmat ko’rsatish mijozlar talabiga javob bera olmasligi korrupsiya va byurokratiya to’siqlarning mavjudligi, tarmoqga yo’naltiriladigan investitsiyalarning yetishmasligi kabi muammolar soha faoliyatini rivojiga to’siq bo’lmoqda. Bizningcha, bu muammolarni hal qilish uchun kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko’rsatishda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish va davlat tomonidan xizmat ko'rsatish sohasiga qo'shimcha yordam ko'rsatish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Milliy universiteti professori Komiljon Karimov O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati, uning rivojlanishi va investitsiya masalalari haqida tadqiqotlar olib borgan. U xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat resurslari samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni yaxshilash orqali xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan fikr bildirgan.

Samarqand viloyati miqyosida xizmat ko’rsatish sohasni tahlil qilishimiz natijasida o’sish tendensiyalari mavjud ekanligini ko’rishimiz mumkin (1-rasm).

[53] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev PQ – 104 sonli “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. Toshkent sh., 2022-yil 27-yanvar. www.lex.uz



1-rasm. Samarqand viloyat xizmatlar sohasining asosiy ko’rsatkichlari *(2024 – yil yanvar oyi)*[54]

1-rasm ma’lumotlaridan kelib chiqib viloyatda xizmatlarning xajmi 2024 - yil yanvar oyi holatiga ko’ra 2380,4 mlrd. so’mni tashkil etib, xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlikning ulushi 66,4 % ga, jami korxonalarda xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar ulushi 73,7 % ga o’sganligini va aholi jon boshiga xizmatlarning hajmi 571,7 ming so’mdan to’g’ri kelganligini ko’rishimiz mumkin. Ammo, mavjud muammolardan kelib chiqib, hamda imkoniyatlarimizni inobatga olgan holatda xizmat ko’rsatish sohasini yanada rivojlantirishimiz mumkin.

Buning uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishimiz lozimdir. Xususan:

Birinchidan, sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida xodimlarni tayyorlash va o‘qitish, malakali kadrlar xizmatning sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlariga mos keladigan xizmat turlarini shakllantirish, sifat nazorati tizimlarini joriy qilish.

Ikkinchidan, innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Buning uchun “onlayn” xizmat ko‘rsatish platformalari takomillashtirish, sun’iy intellekt va chatbotlar yordamida mijozlar xizmatlari 24 soat davomida taklif qilish va "Big Data" texnologiyalari keng joriy etish. Albbat, buning natijasida xizmat ko‘rsatishni tezkor va qulayligi yanada ortadi.

Uchinchidan, mijozlar tajribasini yaxshilash. Bu jarayon xizmat ko’rsatish sohasini markaziy takomillashtirish islohiti hisoblanib, xizmatlardan foydalanish jarayonini qulay va intuitiv qilishi, mijozlarga yoqadigan muhit yaratish, xizmatlar jarayonini soddalashtirish, mijozlardan kelgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish va ularni hisobga olgan holda xizmatlarni yangilab turish orqali

[54] Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi ma’lumotlari

xizmat ko’rsatuvchi kompaniya obro‘sini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mijozlarga individual e’tibor ko‘rsatish, ya’ni shaxsiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularni jalb etish mumkin. Bu ishonchni oshirish va sodiq mijozlar bazasini yaratishga yordam beradi.

To’rtinchidan, xodimlarning o‘z ishiga mehr bilan yondashuvi va professionalligi ham xizmat ko‘rsatish sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi va xizmat ko’rsatuvchi subyektlarda faoliyat ko’rdsatyotgan xodimlarni rag‘batlantirib borish tizmini tashkil etish lozim. Asosan, yaxshi ishlaydiganlarga bonuslar berish, ularni doimiy malaka oshirish treninglarini o‘tkazish, mijozlar bilan to‘g‘ri muloqot qilish madaniyatini shakllantirish, xodimlar salohiyatini oshirish xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchidan, sohada raqobatbardoshlikni oshirish uchun xizmat turlarini kengaytirish va yangi xizmatlarni taklif qilish, turizm, sog‘liqni saqlash, ta’lim, logistika kabi sohalarda qo‘shimcha xizmatlarni rivojlantirish orqali raqobat muhitini mustahkamlash.

Oltinchidan, xizmat ko‘rsatish jarayoniga “yashil texnologiya”lardan foydalangan holda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan “yashil” xizmatlarni taklif qilish, qayta ishlangan materiallardan foydalanish, qog‘ozsiz xizmat ko‘rsatish, korxonaning ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi va ekologik loyihalarda ishtirok etishi xizmatning ijobiy imidjini shakllantirish kabi ustuvor vazifalarni xizmat ko’rsatuvchi korxonalar, davlat tashkilotlari , mamlakatimizni istiqbboli rivojlantirish strategiyalarni maqsadlarini ro’yobga chiqarish jarayonlarida foydalnish orqali xizmat ko’rsatish samaradorligini yanada oshirishimiz mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun yuqoridagi yo‘nalishlar ustida ishlash orqali nafaqat korxona muvaffaqiyati, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shish mumkin. Bu sohada doimiy innovatsiyalar, mijozlar ehtiyojini qondirish, sifatli xizmat va xodimlarni rag‘batlantirish orqali rivojlanish sur’atlarini oshirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev PQ – 104 sonli “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. Toshkent sh., 2022-yil 27-yanvar. www.lex.uz
2. Мирзаев Қ.Ж., Бобоқулов С.Б., Жанзаков Б.Қ. Рақамли иқтисодиёт / Ўқув қўлланма / Самарқанд.: СамИСИ, “STAP-SEL” МЧЖ. Нашриёт матбаа бўлими, -2022 й. 86 бет.
3. Vipin Jain, Bindoo Malviya, Satyendra Arya. An Overview of Electronic Commerce (e-Commerce). Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 3, 2021 https://cibg.org.au/
4. Andrew C. Call a, Nathan Y. Sharp b, Thomas D. Shohf. Which buy-side institutions participate in public earnings conference calls? Implications for capital markets and sell-side coverage. Journal of Corporate Finance. Received

13 November 2019; Received in revised form 20 January 2021; Accepted 15 April 2021. https://www.elsevier.com/locate/jcorpfin

5. Dachen Sheng, and Heather Montgomery. What Triggers Corporate Site Visits, and Do Investors Care? A Comparison of Buy-Side and Sell-Side Analyst Site Visits in China. International Journal Financial Stud. 2023, 11, 16. https://doi.org/10.3390/ijfs11010016 https://www.mdpi.com/journal/ijfs

6. Ядова Н.Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116-125.

7. Boboqulov S. B. et al. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA ELEKTRON BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – С. 524-529.

8. A.N. Nizamov, S.K. Yuldashev, A.X. Jumayev, Sh.S. Sharifov, S.B. Boboqulov. Salary in the system of material incentives for workers of construction //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 7. – P. 1925-1927.

9. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – V. 11. – ISSN Online: 2771-8948. – P. 218-224.

10. Bobokulov S. B. et al. Methods of increasing efficiency of the public utilities //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2019. – V. 1. – №. 1. – P. 7-10.

11. http: //https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

12. https://www.statista.com/statistics/379046/worldwide-retail-e-commerce-sales/

Jonuzakovich Sherzodova Diyora Sherzod qizi	RAQAMLASHTIRISH: HOLATI, NATIJASI VA ISTIQBOLLARI……	68
II SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARAQQIYOTINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
Калбаева Рахат Дуйшоевна Мамадалиева Клара Акимовна	ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И КЫРГЫЗСТАНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ……..	73
Эркин Шавқиев	САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИНГ РОЛИ……	80
G.M.Shadiyeva	MAMLAKATIMIZDA KAMBAG’ALLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHNING O‘RNI……	84
Шарипов Бобур Анвар ўғли	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҲУДУДЛАРИДА КИЧИК БИЗНЕС СОҲАСИНИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ……	89
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	96
Babakulov.B.M Usmonov M.D.	QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH VA SOQIT QILISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……	100
Ниёзов Зухур Давронович	МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРНИ КЎПАЙТИРИШДА ВЕКСЕЛДАН ФОЙДАЛАНИШ……	103
Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi Mamarajabov Azizbek Nuradullo o`g`li	QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI YAXSHILASH UCHUN AYRIM TAKLIFLAR……	108
Azizkulov Baxtiyor Hayitov Afruz Xurshidovich	TIJORAT BANKLARINING BALANSDAN TASHQARI OPERATSIYALARI JAMIYAT HAYOTI UCHUN AFZALLIKLARI	111
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI MUAMMO VA ISTIQBOLLARI……	116
Эркин Шавқиев	ЎЗБЕКИСТОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ……	121
Ачилов Салохиддин Саломович	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НАЛОГОВУЮ СИСТЕМУ УЗБЕКИСТАН……	126
III SHO’BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI		
Teslenko Irina		